

HUQUQ DARSLIKLARI VA ULARGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Yakubjonov Nuriddin Ravshan o‘g‘li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

nuriddinyakubjonov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada huquq darsliklari ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, bugungi kunda o‘quvchilarining huquqiy bilimini oshirish qaratilgan chora-tadbirlar haqida.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, huquq, huquqiy ong, huquqiy madaniyatni, axborot, texnologiya, QR-kod.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о современных требованиях к учебникам права, мерах, направленных на повышение правовых знаний учащихся сегодня.

Ключевые слова: *образование, обучение, право, правосознание, правовая культура, информация, технология, QR-код.*

ABSTRACT

This article is about modern requirements for law textbooks, measures aimed at increasing the legal knowledge of students today.

Key words: *education, training, law, legal consciousness, legal culture, information, technology, QR-code.*

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida huquq fanlari o‘qitish ilim-fan taraqqiyoti natijalari, shuningdek zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinishi huquq darsliklarini yangilanib borishiga olib kelmoqda. Zamonaviy huquq darsliklari o‘quvchilarini bilimlarni tez va oson o‘zlashtirishga, ularni mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni takomillashtirish, o‘quvchilarini egallagan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olishini ta’minlash kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17-mart 2022 yildagi PF-89-son Farmoniga asosan Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy

xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi dasturining 38-bandida, Xorijiy olimlarni jalb etgan holda yangi avlod darsliklarini yaratish. Bunda darslikni yozishda mavzularni o'zlashtirish oson bo'lishi uchun yangicha usul, jumladan zamonaviy axborot-texnologiyalari imkoniyatlari va QR-kodlardan foydalanish to'g'risida kompleks chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan.

Ta'lismizning sifatini oshirish maqsadida:

- yuridik adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish;
- shakllantirilgan ro'yxat asosida yuridik adabiyotlarni tayyorlash va to'plash;
- "Yuridik kutubxona" elektron tizimini joriy qilish¹.

Huquqiy darslik ta'lismizning maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarining yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z darsliklari bo'ladi. Darslik nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi. Bunda o'quvchilarga mustaqila izlanishlari uchun topshiriqlar, turli-xil metodlar yordamida mavzuni mustahkamlash va nazorat savollari, egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish uchun test savollari beriladi.

O'quv adabiyotlarining shakli va turlari.

O'quv adabiyotlari oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limgizning davlat ta'lismiz standartlari, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari asosida muayyan o'quv fani bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlar, o'quv materiallari, uslubiyot va didaktik ma'lumotlar ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, jahon tajribalari asosida tizimli bayon etilgan nashr bo'lib, asosan ikki xil shaklda tayyorlanadi: an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari va elektron o'quv adabiyotlari.

An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari — ta'lismizning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, o'quv materiallari va ma'lumotlar hajmi, shriftlar, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda matbaa usulida tayyorlanib chop etilgan nashr;

Elektron o'quv adabiyotlari — zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan elektron majmua².

Darslik-o'quv fani, uning biror yo'nalishi yoki tarkibiy qismining davlat standartlariga va o'quv dasturiga mos holda, yuqori ta'lismiz muassasalari tomonidan tasdiqlangan sistemali ravishda bayon etilgan o'quv mahsulotidir.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5914998>

² <https://lex.uz/docs/-3970451>

Elektron o‘quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqirlashtirishga, qo‘srimcha ma’lumotlar bilan ta’minalashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimi o‘quv-tarbiyaviy jarayonida o‘quv adabiyotlarining quyidagi turlari qo‘llaniladi: darslik, o‘quv qo‘llanma, lug‘at, izohli lug‘at, ma’lumotlar to‘plami, lektsiyalar kursi, lektsiyalar to‘plami, metodik ko‘rsatma, metodik qo‘llanma, sharh, dayjest, elektron darslik, ma’lumotlar banki va boshqalar.

Huquqiy elektron darslik - kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarali o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan bo‘lib:

- o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o‘quv materiallar verbal (matn) va ikki o‘lchamli grafik shaklda;
- multimedia (ko‘p axborotli) qo‘llanmalar, ya’ni ma’lumot uch o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o‘quvchini «ekran olamida» stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Hozirgi kunda Maktabgacha va mактаб та’лими vazirligi tomonidan QR-kodli huquq darsliklar yaratilmoqda bunda o‘quvchilarni bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. QR-kod mazmun-mohiyatiga asosan ingliz tilidan olingan bo‘lib, “QuickResponse” so‘zlarning qisqartmasi hisoblanadi va “tezkor javob” ma’nosini bildiradi. *Unda oddiy matn, audio yozuvlar, video roliklar, 3D formatdagi shakllar va boshqa shu kabi boshqa internet resurslari bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda kameraga ega zamонавиy telefonlar kvadrat ko‘rinishdagi tasvir ostida yashiringan ma’lumotlarni oson o‘qish imkoniyatini beradi.*

QR-koddan foydalanishning afzallikkleri:

- darslikka elektron resurslarni bog‘lash imkoniyatini yaratadi;
- darslikning o‘qishliligini oshiradi, darslik sahifalarining ixchamlashishiga olib keladi va o‘quvchi qiziqishini orttiradi;
- ushbu turdagagi kodlashning ommabopligi, birinchi navbatda, texnologiyalarning rivojlanishi, zamонавиy kompyuter texnologiyalari va telefonlarning keng tarqalgani. Bunda QR-kodni o‘qish uchun kompyuter texnologiyalari va mobil telefonga “QR Code Reader” dasturi o’rnatilgan bo‘lishi kifoya;
- darslikni nafaqat boyitadi, shu bilan birga keyingi chop etilgunicha o’tadigan 5 yil davomida bo‘ladigan o‘zgarishlarni davriy ravishda internet resurslari hisobiga to’ldirib borish imkoniyatini yaratadi;

- darslikka kiritilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarga oid qo’shimcha internet manbalaridan foydalanish imkonini beradi;
- o’quvchilarini qo’shimcha qiziqarli yangiliklardan matn, audio, video shaklida xabardor qilib borishni ta’minlaydi;
- darsliklarga ilova qilinadigan multimedialar uchun sarflanayotgan mablag‘larning iqtisod qilinishiga erishiladi¹.

Ma’lumotlar banki - axborot texnologiyalarining imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan, statik va dinamik rejimi tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta’minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o‘z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko‘rinishda (jadval, diagramma, histogramma, matn, rasm, va hokazo) bera oladigan, o’quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o‘z ustida mustaqil ishlashi va o‘z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo’llaniladigan, doimiy ravishda to’ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo‘ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami.

O‘quv qo’llanma - darslikni qisman to’ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va asoslarining chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlovchi, ayrim bob va bo‘limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg‘ulotlar yechimiga mo‘ljallangan nashr hisoblanadi. Huquq fanlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

O‘quv qo’llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi.

Lug‘at - aniq bir tartibda joylashgan so‘zlar (yoki so‘z birikmasi, idiomalar va hokazo) to‘plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi yoki so‘zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

Izohli lug‘at - so‘zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so‘zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo’llashga oid misollar va boshqa ma’lumotlar keltirilgan, qo’shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Ma’lum otlar to‘plami - foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta’lim yo‘nalishini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan, isbot talab qilmaydigan ma’lumotlar, ilmiy ko‘rsatkich va o‘lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma’lumotlardan tashkil topgan nashr.

Ma’lumotlar to‘plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi lozim.

Leksiyalar kursi - fanning o‘quv dasturi bo‘yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan,

¹ <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3995.htm>

foydalilaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama hamda iboralar keltirilgan nashr, leksiyalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

Leksiyalar to'plami - muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalilaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo'yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik (uslubiy) ko'rsatma - muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo'llanma - o'qituvchilar (professor-o'qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr. Sharh - jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g'oyalarni, fikrlarni va ta'riflarni izohlovchi, muayyan masalalar yechimini ko'rsatuvchi, keng ommaga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalilaniladigan nashr.

Dayjest - ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, davlat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalilaniladigan davriy nashr.

O'quv adabiyotlariga qo'yiladigan talablar.

Huquq adabiyotlar, ta'lim turlarining xususiyatlaridan va nashr shaklidan qat'iy nazar barcha o'quv adabiyotlar quyidagi umumiy talablarga javob berishi kerak:

- davlat ta'lim standartlari (davlat talablari) asosida tayyorlanishi;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasi va o'qitishning interaktiv uslublarini tatbiq qilishda ko'mak berishi;
- tegishli o'quv fanining nazariy amaliy rivojlanishida, uzoq va yaqin o'tmishdagi boy intellektual merosimizning o'rni va ahamiyatini ko'rsatishi;

- intellektual insonparvarlik g‘oyalarining aks ettirilishi, insonning tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ta mas’uliyatlilagini anglatishga qaratilishi;
- vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish;
- ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishi, ta’lim-tarbiya uzviyligini ta’minlashi;
- bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, qiziqish uyg‘ota oladigan va mustaqil fikrlashga yo‘naltira oladigan xususiyatlarga ega bo‘lishi;
- bilim oluvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi, mustaqil ta’lim olishga qiziqish uyg‘otishi;
- yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan ma’lumotlar (qonunlar, ayniyatlar, tasniflar, va hokazo) dan tashkil topishi;
- illyustratsiyalarga boy, ko‘rgazmali tasvir va badiiy-uslubiy jihatdan amaliy faoliyatga qaratilgan bo‘lishi;
- bilim oluvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishi; bilimlarning mutlaqligi va nisbiyligini yorqin ifodalashi;
- ta’lim oluvchilarining bilimi, uquvi va ko‘nikmalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- ta’lim va tarbiyani ijtimoiy hayot, unumli mehnat bilan uzviy bog‘lanishiga e’tibor berishi;
- fan va texnika yutuqlarining ahamiyatini ifodalashi, ilmiy masalalarining mantiqiy ketma-ketlikda, fanning o‘quv dasturiga muvofiq bayon etilishi;
- yaxlitlikni idrok qilish hissi shakllanishi uchun barcha ma’lumotlar mantiqiy bir tizimda berilishi;
- matn jozibali shaklda bayon etilishi.

Asosiy tushuncha va xulosalarning ta’riflari nihoyatda aniq va ravshan yozilishi, atamalarning umumiyligiga erishish. Sanab o‘tilganlardan tashqari har bir ta’lim turining o‘quv adabiyotlariga o‘ziga xos bo‘lgan talablar qo‘yiladi¹.

Adliya vazirligi tomonidan vakolatli va manfaatdor davlat organlarini jalg etgan holda **“Huquqiy fanlarga oid yangi avlod darsliklarini yaratish bo‘yicha “yo‘l xarita”** si ishlab chiqilmoqda.

Ushbu “yo‘l xarita”da yuridik ta’lim va adabiyotlarni takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan bo‘lib, ularning dolzarblari sifatida quydagilarni sanab o‘tish o‘rinli:

— birinchidan, nufuzli xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda umumiyligi o‘rtaligining maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari huquqiy fanlarning o‘quv rejasi, o‘quv dasturlari hamda huquqiy ta’limga oid o‘quvchilarining

¹ O‘.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov PEDAGOGIKA TOSHKENT - «TALQIN» - 2008

tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablarni xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqish;

— ikkinchidan, darsliklar tanqidiy nuqtai nazardan qayta tahrir etilib, professional muallif (pedagog, huquqshunos, filolog, psixolog va rassom-dizayner)lar tarkibini tuzgan holda yangi darslik yaratish va soha mutaxassislarining ijobiliy taqrizlari asosida nashr etish;

— uchinchidan, o‘quvchi-yoshlarga huquqiy ta’lim berish, milliy huquq tizimi to‘g‘risidagi tasavvurlarni uyg‘otish maqsadida maktablarda huquqiy fanlarni huquqshunos mutaxassislar tomonidan olib borilishi choralarini ko‘rish;

— to‘rtinchidan, huquqshunos hamda pedagog olimlar bilan hamkorlikda huquqiy ta’limda bir xil yondashuvni ta’minalash uchun “**Huquqiy fanlarni o‘qitishning zamонавиy usul va vositalari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma**” ishlab chiqish masalalari belgilangan¹.

Huquqiy ta’lim shaxsning huquqiy ong darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng umumi yuridik prinsiplar va normalarni anglab yetishga yo‘naltiradi.

Huquqiy ongni shakllantirish ko‘p jihatdan huquqiy ta’limga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmonida Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiysi ishlab chiqilgan bo‘lib, bundan kutilgan maqsad:

— fuqaro, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, shaxsiy ehtiyojlar hamda jamiyat ehtiyojlar o‘rtasidagi muvozanatning saqlanishini ta’minalash;

— bola va yoshlar ongiga ilk huquqiy tushunchalarni va odob-axloq qoidalari tizimli singdirib borish, huquqiy ta’lim-tarbiyani uzviy va tizimli olib borishga erishish;

— huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullarini yaratish va joriy etish, huquqiy bilimlarni targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

— mansabdor shaxslar va fuqarolarda qonunga va huquqqa bo‘lgan hurmat hissini kuchaytirish, huquqbazarliklar profilaktikasining samaradorligini ta’minalash².

Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda

¹ <https://daryo.uz/2018/10/14/adliya-vazirligi-maktablarda-huquqiy-fanlardan-otilayotgan-darsliklarning-mazmuni-qoniqarsiz>

² <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>

qo‘llash, huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish uchun huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirishni asosiy vazifa qilib belgilangan.

Mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida olib borilayotgan demokratik islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad - adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik huquqiy davlat barpo etishdir.

Aholining, ayniqsa, yoshlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini hamda konstitutsiyaviy-huquqiy bilimlarini oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar va islohotlar samaradorligining muhim shartidir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiyani tizimini uzlusiz davom ettirish huquqiy savodxonlik, o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini oshirish har jihatdan ta’lim tizimidagi huquqiy fanlar ko‘lami va ularni sifatli huquqiy darsliklar bilan ta’minlanganlik darajasi bilan bog‘liqdir, jahon ta’lim tizimi va milliy qadriyatlarimiz asosida yangi o‘quv darsliklar yaratish, o‘quvchilarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va bilim darajasini oshirishga katta e’tibor qaratish lozim kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5914998>
2. <https://lex.uz/docs/-3970451>
3. O‘.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov PEDAGOGIKA TOSHKENT - «TALQIN» - 2008.
4. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3995.htm>
5. <https://daryo.uz/2018/10/14/adliya-vazirligi-maktablarda-huquqiy-fanlardan-otilayotgan-darsliklarning-mazmuni-qoniqarsiz>
6. <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>